

**1946-1980-YILLARDA MARKAZIY FARG'ONA CHO'LLARINING  
ANDIJON VILOYATI HUDUDLARIDA YANGI PAXTACHILIK  
TUMANLARINING TASHKIL TOPISHI**

*Abdullayev Ravshanjon Raxmonali o'g'li*  
*NamDU 2-bosqich mustaqil izlanuvchi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada 1946-1980-yillarda Andijon viloyatida tuzilgan Bo'z ( Bo'ston) va Ulug'nor tashkil etilishi va rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Bo'z, Bo'ston, Ulug'nor, Andijonsoy, Shimoliy Farg'ona kanali, monokultura.

Markaziy Farg'ona cho'li qo'riq va bo'z yerlari umumiy jihatdan 386 ming gektarni tashkil qiladi. Uning hududlari vodiyning uch viloyati hududlariga to'g'ri keladi. Shu boisdan qo'riq va bo'z yerlar o'zlashishi natijasida bu uch viloyat tarkibi yangi tuzilgan paxtachilik tumanlari bilan to'ldirilgan. Jumladan, Andijon viloyatida Bo'z va Ulug'nor tumanlari tashkil etadi.

Markaziy Farg'ona cho'llarining janubiy mintaqasida yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida aholi punktlari ko'payib bordi. Buni hisobga olgan holda O'zbekiston hukumati tomonidan 1973-yil 26-dekabr sanasida Andijon viloyati tarkibiga kiruvchi Ulug'nor tumaniga asos solindi. Ushbu tuman markazi sifatida Oqoltin qishlog'ibelgilangan. Ulug'nor tumani Yozyovon, Bo'ston, Mingbuloq, Namangan tumanlari bilan chegaralangan. Tuman tashkil etilganda uning yer maydoni 0.44 kv.km ni tashkil qilgan. Tumanda yashovchi aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etishgan. Shuningdek, Ulug'nor tumanida tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, rus, ukrain va belaruslar yashaganlar. Tumandagi ekin maydonlarini, asosan, paxta chigiti ekilgan. Ushbu paxta maydonlari tuman ekin maydonlarini 70% idan ko'prog'ini tashkil qilgan. Shuningdek, Ulug'nor tumanida chorvachilik, polizchilik, zabzavodchilik koplekslari ham faoliyat yuritgan. Ulug'nor tumani asosiy suv ta'minoti Ulug'nor hamda Katta Andijon kanallari hisoblanadi.

Katta Andijon kanali O'zbekiston SSR qarori bilan 1966-yil qurilish ishlari boshlangan. Kanal qurilish ishlari 4 yil davom etib, 1970-yil kanal ishga tushirilgan. Kanalning umumiy uzunligi 109 kmni tashkil qiladi, kanal suvlaridan oqilona foydalanish uchun 2 qismga bo'lib boshqariladi. Kanalning boshlanish qismi suv o'tkazish qismi sekundiga 200 metr kubni tashkil qilgan. Qolgan qismlarida 150 metr kubni tashkil qiladi. Kanalning kuzatuv qismi 5 ta bo'linmaga ajratilgan. Katta Andijon kanali Norin daryosidan suv oladi. Bu holat ham Sirdaryo suv sig'imining kamayishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ulug'nor tumani Markaziy Farg'ona cho'llarida tashkil etilgan, nisbatan yosh paxtachilik tumanlaridan biridir. Tuman joylashgan yerlar cho'l

mintaqasiga tegishli boʻz tuproqlardan iborat boʻlgan. Bu yerlarda yilgʻin, qamish, yalpiz, qovgʻa, shoʻra, yantoq, saksavul kabi suvsizlikka chidamli choʻl oʻsimliklari oʻsgan. Sovet hukumatining paxtachilik siyosati tufayli tumanga qarashli kolxozlarning koʻpchiligi paxta mahsulotlari yetkazib bergan. Ulugʻnor tumani kolxozlaridan davlatga yiliga 10 ming tonnalab paxta yetkazib turgan. Tumanda Oʻzbekiston SSRning boshqa paxtachilikka ixtisoslashgan tumanlari kabi paxta infrastrukturasi shakllantrilgan. Yaʼni tumanda paxta hosili unumdorligini oshirishga xizmat qiluvchi MTSlar, Irrigatsya inshootlari barpo etilgan. Tuman yangi shakllantirilgan vaqtda unga respublika markazidan ishchilar va rahbar kadrlar yuborilgan.

Boʻz tumani — (1950-2019-yillarda — Boʻz tumani) Andijon viloyatidagi tuman. 1950-yil 5-aprelda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Shahrixon tumaniga qoʻshib yuborilgan. 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan. Shu davr olimlarining yozidshicha, 1950-yillardagi saylovlarda Boʻz tumani haqida maʼlumot berilmagan. Keyinchalik esa oradan 4 yil oʻtib yangi tuman shakllanganligi haqida Shahrixon tumanining bir qismi hududlarida Boʻz tumani tashkil etilganligi qayd etilgan.<sup>1</sup> 2019-yil 30-sentyabrda tuman nomi Boʻston tumani deb oʻzgartirilgan. Boʻz tumani shimol, shimoli-gʻarbda viloyatning Ulugʻnor tumani, shimolda Baliqchi tumani, sharqda Shahrixon tumani, janubi-gʻarbda Fargʻona viloyatining Yozyovon, janubda Qoʻsh tepa tumani, janubi-sharqda Quva tumani bilan chegaradosh. Maydoni — 0,20 ming km<sup>2</sup> tashkil etgan.

Boʻz tumanining yer yuzasi dengiz sathidan 500 metr balandlikdagi tekislikdan iborat. Tuman hududining gʻarbiy qismida koʻchma qum tepaliklari koʻp. Tepaliklar orasidagi pastlik joylarda baʼzan botqoqliklar uchraydi.

Tuman hududi 3 massivga boʻlingan: 1) Sharqiy Yozyovon massivi, 2) Katta Fargʻona kanali massivi, 3) Ulugʻnor massivi.

Paxta yakkahokimligi davrida Markaziy Fargʻona choʻli hududlarida tashkil etilgan dastlabki paxtachilik tumani bu Boʻston yoki Oʻzbekiston SSR davrida nomlangan Boʻz tumani hisoblanadi. Tuman choʻl yerlarida tuzilib tuprogʻi, asosan, shoʻrlagan qumliklardan iborat boʻlganligi uchun Boʻz deb nom berilgan. Oʻzbekiston SSR rahbarlaridan biri boʻlgan Sharof Rashidovning bashorat qilganidek: “Bir kun kelib bu hududlar Boʻston boʻladi”, — deb taʼkidlagan. Ushbu gaplar asosida 2019-yil 16-may sanasida tuman tashkil topganining 70 yilligi arafasida Boʻz tumani nomi Boston tumani deb oʻzgartirildi. Ushbu jarayonda Oʻzbekiston yuksalish harakati, nuroniylar, yoshlar faol qatnashdilar.

Mazkur Boʻz tumani choʻl hududlarida tashkil etilgan eng kichik hududga ega tuman hisoblansa-da, lekin choʻldagi dastlabki oʻzlashtirish jarayonlari shu

<sup>1</sup> Veshnev A. Yangi rayonda. // Qizil Oʻzbekiston. №56 (870) 1981. –B.8.

mintaqadan boshlanganligini ko‘rish mumkin. Tuman Katta Farg‘ona kanali va boshqa suv manbalardan sug‘orish ishlarida keng miqyosda foydalanadi. Tuman hududi yerlari sho‘rlik darajasi yuqori bo‘lganligi uchun, eng avvalo, sovet agronomlari tuman yerlarida bir necha agrotexnik tadbirlarni qo‘llaganlar. Dastlabki yillarda ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, paxta yakka hokimligi yil sayin kuchayib borgan sari, asosan, biryoqlama, qanday qilib bo‘lmasin hosildorlikni ko‘paytirish masalasiga e‘tibor qaratilgan. Bo‘z tumani hududida sho‘rlarni yuvish uchun yerlarni ochilgandan so‘ng 2-3 yil davomida sug‘orilib yerlar sho‘ri yuvilgan. XX asrning 50-yillaridan sho‘r yerlarni o‘zlashtirish uchun yerlarga qora ekin turlaridan makkajo‘xori, beda va poliz ekinlari sabzavotlar ekilgan. O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab esa ularning ekilish miqdori kamayib paxta maydonlari kengayib brogan, ayniqsa, Andijon viloyatidagi paxtachilik kolxozlarida bu raqamlar umumiy ekin ekiladigan yer maydonlarining 70% miqdorini tashkil qilgan.

Bo‘z tumani ham Yozyovon cho‘llari mintaqasida tashkil etilgan. Bu tumandagi infrastruktura paxtachilik kompleksini rivojlantirishga qaratilgan. Sovet davrida tumanni yangi tashkil etilgan vaqtlarda boshqargan kadrlar zimmasiga cho‘l zonasini o‘zlashtirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, keyingi yillarda paxta rejasini tezroq va ortig‘ibilan bajarish yuklamalari qo‘yilgan. Tumanda paxtachilik tarmog‘idan tashqari, pillachilik tarmog‘i ham yo‘lga qo‘yilgan. Tumanda yiliga o‘sha paytlarda 3-4 ming quti ipak qurti boqilgan. Tuman aholisi esa 15-20 ming kishini tashkil qilgan. Bundan kelib chiqadiki, tumandagi har 4-5 kishining bittasiga bir quti ipak qurti to‘g‘ri kelgan.

Shunday qilib, Andijon viloyatida 1946-1980-yillarda Markaziy Farg‘ona cho‘li hududlari o‘zlashtirilishi natijasida Bo‘z ( Bo‘ston ) va Ulug‘nor paxtachilik tumanlari tashkil topganligini ko‘rib chiqdik. Ushbu tumanlar hozirgi kunda ham viloyat tarkibida ma‘muriy birlik sifatida faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. O‘zbekiston davlat milliy arxivi ( 76-jamg‘arma .5-ro‘yhat 11-yig‘ma jild 7-bet
2. Фарғона вилоят давлат архиви (бундан кейин - ФВДА), 1151-жамғарма, 1-рўйхат, 3-йиғма жилд, 14-варақ
3. Farg‘ona Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi( Farg‘ona viloyatida 2019-2020-yillarda sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumot.) 2021.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ходимларига.// Халқ сўзи, 2019 йил 7 декабрь.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston nashriyoti,2017. –B.245-256

6. Komilov O. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (Sovet davridan hozirgi kungacha) .-T.:Muharrir nashriyoti, 2019. –B.5-7.

7. Заорская-Александрова В.В., Александров И.Г. Перспективы развития орошения в Фергане.-Москва: Ред.- издат.ком.Нар.комиссариата земледелия, 1922.-63 с; Александров И.Г. Проект орошения Юго-Восточной Ферганы (Общая схема).Вып.-№2.-Москва: Издательство Турк. Эконом. Совет. (ТЭС), 1923. -234 с; Прохоров Н.Д. Краткий обзор Ферганской ирригации в связи с пятилетним планом работ // Вестник ирригации.-Ташкент, 1925.-№ 3.-С. 3-14; Яновский М. Северный Ферганский канал.-Ташкент: Сельхозгиз, 1940.-30 с; Юсупов В.У. Фархадская ГЭС (история строительства).-Ташкент: Госиздат, 1959.-75 с; Кузьмин М.И. Большой Ферганский канал // Гидротехника и мелиорация. - Москва, 1960. -№3. -С.1-9; **Наринский К.М.** Яшнаган кўриқ (Ўзбекистон меҳнаткашларининг Марказий Фарғонадаги кўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш тажрибалари).-Тошкент: Ўзбекистон, 1965. -60 б; Шу муаллиф. Из истории развития орошаемого земледелия в Узбекистане (на примере освоения Центральной Ферганы): Дисс. ... канд. истор. наук. -Ташкент, 1965.-260 с; Жалилов С. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан (XIX-XX аср бошлари). -Тошкент: Фан, 1977.-168 б; Гофуров А. Фарғона мелиораторларининг вазибалари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 1981. -№10. -Б.55-57.

Пославский В.В. Вода для большого поля: (Воспоминания).-Ташкент: Фан, 1986.- 90 с; Рустамов Х. Ҳаёт саҳифалари.-Тошкент: Меҳнат, 1986.-72 б; Тўхтасинов И. Бунёдкорлар. -Тошкент: Ўзбекистон, 1989.-70 б; Расулов К., Мурадуллаев Ш. Главная артерия жемчужной долины. -Ташкент: Меҳнат, 1990.-40 с.

8. Рустамов А. Центральная Фергана. -Ташкент: Меҳнат, 1995.-46 с; Фозилов Ғ. Водийнинг олмос камари.-Фарғона: Фарғона, 1996.-58 б; Насритдинов Қ.М. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи (XIX аср иккинчи - XX аср биринчи ярми). -Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.-223 б; Комилов О.К. Марказий Фарғона кўриқ ерларининг ўзлаштирилиши ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 50-70-йиллари мисолида) // Фарғона давлат университети. Илмий хабарлар.-Фарғона, 2011.-№4.-Б.39-44; Мамасолиев Т. Бўзликлар, элим деганлар.-Тошкент: Turon-iqbol, 2012.-Б.14. -128 б.

9. Bichsel C. Conflict transformation in Central Asia.Irrigation disputes in the Ferghana valley. -London and New York: Routledge, 2009.-164 p; Шу муаллиф. Liquid Challenges: Contested Water in Central Asia // Sustainable Development Law & Policy 12.-Washington, 2011.Volume 1. P.24-30, 58-60; Mocello B. Water in Central Asia: A Prospect of Conflict or Cooperation? // Journal of Public and International Affairs. -New York, Volume 3, March

2008. P.151-174; Ferghana valley: the heart of Central Asia / edited by S.Frederick Starr.-USA: Armonk, 2011.- 411 p.

10. Kolbinsev.A. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab. –T.:O‘zbekiston nashriyoti. 1979. – B.62-63

11. Shamsiddinov R, Karimov Sh . O‘zbekiston tarixidan materiallar. – Andijon: Andijon nashriyoti, 2004.-B.252-257

12. Fozilov G‘. Vodiyning olmos kamari (ocherk). –FARG‘ONA: Farg‘ona nashriyoti,1996. -B31-35.

13. Gapporov F..A va boshqalar. Suv omborlaridan foydalanish. –T.: Muharrir nashriyoti, 2019. –B.31-40.

Kolbinsev.A .Farg‘ona vodiysi bo‘ylab. –T.:O‘zbekiston nashriyoti, 1979. –B.37-39.

14. Apakhujayeva T.U. Suv omborlari gidravlikasi. –T.:Muharrir nashriyoti, 2016. –B .50-58

Ikromova M. va boshqalar. Suv omborlari gidrologiyasi. –T.:Baktriya Press, 2019 –B.95-97.

Kolbinsev.A .Farg‘ona vodiysi bo‘ylab. –T.:O‘zbekiston nashriyoti. 1979. –B.85-86.

15.Komilov O. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (Sovet davridan hozirgi kungacha) .-T.:Muharrir nashriyoti, 2019. –B.40-44.

16. Veshnev A. Yangi rayonda.//Qizil O‘zbekiston. №56 (870) 1981. –B.8.